# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

8
2023

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

TDIU 1931 TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Eshov Mansur Po'latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
**Karimov Norboy G'aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universititi rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To'lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA


JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi ..................... 6
**Muxiddin Kalonov,** i. f. d., professor

O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi ..................... 11
**Jumayev Olimjon Sadulloyevich,** tadqiqotchi

"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari ..................... 18
**Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li,** tayanch doktorant

Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash ..................... 24
**Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich,** PhD

O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish ..................... 27
**Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li,** PhD

Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi ..................... 34
**Mamaraximov Bekzod Erkinovich,** i. f. n., dotsent

Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari ..................... 39
**Normurodova Zebo Eshmaxmatovna,** kafedra o'qituvchisi

Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar ..................... 44
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** t. f. n., mustaqil tadqiqotchi

Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili ..................... 50
**Berdiyev Anvar Abduraxmonovich,** tayanch doktorant

Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati ..................... 56
**G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish ..................... 61
**Olimjanova Nigora Alisherovna,** mustaqil izlanuvchi

Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli ..................... 65
**Saydirasulov Laziz Alimovich,** doktorant

Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar ..................... 71
**Tulayev Mirzakul Salamovich,** kafedra dotsenti; **Axmedov Akbarali Sultonmurodovich,** i. f. n (PhD)

Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций ..................... 78
**Урдабаев Жарылкап Ермекбаевич,** независимый исследователь

Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий ..................... 83
**Махмудов Носир Махмудович,** д. э. н., профессор; **Фозилова Фирангиза Комиловна,** докторант

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati ..................... 89
**Sherali Xolliyev,** kafedra o'qituvchisi

Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni ..................... 94
**Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna,** mustaqil tadqiqotchi

Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari ..................... 99
**Xakimov Ziyodulla Axmadovich,** dotsent; **Axmadova Rayxona Jasurbek qizi,** tadqiqotchi

"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari ..................... 103
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi ..................... 108
**Abdiyeva Flora Botir qizi,** tayanch doktorant

Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar ..................... 114
**Abdullayev Farxod Ozodovich,** mustaqil tadqiqotchi

Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari ..................... 119
**Hakimjon Hakimov,** tadqiqotchi

Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country ..................... 125
**Sanakulova Barnogul Rizakulovna,** Doctor of Economic Science, Professor;
**Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli,** Senior researcher


MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Sanoat korxonalarining iqtisodiy oʻsishi va barqaror rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari ....129
**Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi**
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution ....133
**Mirziyo Sodikov Odiljon ogli**
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili ....138
**Roʻzmamatov Abbos Tolibjon oʻgʻli,** magistrant
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish ....144
**Saydullayev Azamat Joʻraqul oʻgʻli,** tayanch doktorant
Eksport – mamlakat iqtisodiy oʻsishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida ....151
**Sharifi Ahmad Sakhrob,** mustaqil izlanuvchi
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны ....156
**Суюнова Фотима Баходир кизи,** базовый докторант
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi ....161
**Xatamov Nurbek Ochildiyevich,** erkin tadqiqotchi
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni oʻqitish va rivojlantirishning oʻrni ....169
**Gʻaniyeva Dilnoza Baxriddin qizi,** doktorant
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане ....174
**Жуманиязова Феруза,** PhD, доцент
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari ....179
**Mamatov Bahromjon Shavkatovich,** dotsenti, PhD
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari ....184
**Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna,** mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning oʻrni ....190
**Nilufar Sharipova,** PhD
Dunyoda qorakoʻl teriga boʻlgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar ....197
**Nurillayev Jamoliddin Yarashevich,** doktorant, i. f. n., dotsent
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va koʻrsatkichlari ....201
**Oʻroqov Mamurali Odil oʻgʻli,** tayansh doktarant
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi ....208
**Razzaqov Jasur Hamraboyevich,** dotsent, PhD
Сравнительный анализ методов оценки финансирование инновационных разработок предприятие ....212
**Рузиева Дилноза Абдусаматовна,** независимый исследователь
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yoʻllari ....216
**Saydullayev Shaxzod Sherzodovich,** PhD
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения ....222
**Хажиев Бахтиёр Душабоевич,** dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari. ....227
**Adizov Sardor Rashidovich,** mustaqil izlanuvchi
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish ....231
**Mamatov Sardor Axmatjonovich,** mustaqil tadqiqotchi
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili ....238
**Abrorov Sirojiddin Zuxriddin oʻgʻli,** PhD
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана ....243
**Мирзахалилова Азизахон Алишеровна,** докторант
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish ....249
**Sultanov Maxmud Axmedovich,** dotsent, PhD
Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining oʻrni ....254
**Xojiyev Elshod Yoqub oʻgʻli,** PhD; **Fayzullayev Shuhrat Sherali oʻgʻli,** tayanch doktorant
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики ....259
**Отакулов Махамаджон Каримович,** PhD, и.о. доцент
Milliy turizm tarmogʻida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ....264
**Xalilov Sirojiddin Sherali oʻgʻli,** PhD
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari ....268
**Eshmatov Sanjar Ashirqulovich,** mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)

O‘zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari ....272
**Gadoyev So‘hrob Jumakulovich,** PhD, dotsent
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея ....277
**Алимова София Розумбаевна,** независимый исследователь
Hududlarda oliy ta’lim va mehnat bozori integratsiyasi yo‘nalishlarini takomillashtirish ....282
**Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich,** tayanch doktorant
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish ....290
**N. N. Ismatullayeva,** tayanch doktarant
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili ....293
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD
Temir yo‘l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili ....298
**Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna,** tayanch doktorant
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка ....304
**Жураева Нодира Фузулий кизи,** ассистент кафедры
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug‘urtalashni takomillashtirish yo‘llari ....310
**G. Abduvosidova,** kafedra o‘qituvchisi
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari ....315
**Nazarov Shohbek Isroilovich,** magistrant
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash strategiyasini ishlab chiqish ....320
**Mamatov Axmetjon Atajanovich,** professor; **Allaberganov Zakir Gayibovich,** dotsent
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari ....327
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD; **Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o‘g‘li,** magistrant
Byudjyetdan tashqari mablag‘lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli ....330
**Norov Akbar Ruzimamatovich**
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o‘sish jarayonlari bilan bog‘liqligi ....335
**Xoliqov Ulug‘bek Rustamovich,** t.f.n.
Sun’iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta’siri: xorijiy tajriba ....341
**N.N.Ro‘ziyev**
O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish ....350
**Astanov Sherzod Rustamovich,** mustaqil tadqiqotchi
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies ....356
**Nosirova Charos**
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari ....364
**Irgasheva Gulbahor Sodiqovna,** tayanch doktorant
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo‘llari ....369
**Abduxamidova Gulxayo,** tadqiqotchi
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili ....374
**Xatamov Nurbek Ochildiyevich,** erkin tadqiqotchi
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала ....380
**Дадаханова Саида Махаммаджон кизи,** докторант
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами ....386
**Хайдарова Малика Шакирджановна,** преподаватель кафедры
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili ....396
**S.T.Toshaliyeva,** PhD
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a’zo bo‘lish xususida ....403
**Ruzibayev Jahongir Nodirovich,** tadqiqotchi
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida ....407
**Nabiyev Feruz Nurmurodovich,** tadqiqotchi
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish ....412
**Imomova Nodira Shavkatovna** tadqiqotchi, **Sultonov Mansur Qilichevich** PhD
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish ....416
**Xashimova Naima Abitovna,** i.f.n., professor; **Ergashev Shoxrux Vosiljon o‘g‘li assistent**
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar ....421
**M.A.Saparova, talaba**



# LOGISTIKA KOMPANIYALARIDA YUKLARNI SUG‘URTALASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

**G. Abduvosidova**
Toshkent moliya instituti
“Xalqaro moliya-kredit” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada hozirgi davrda dunyo iqtisodiyotida keng o‘rin olayotgan logistika kompaniyalarida sug‘urta xizmatlaridan foydalanishni rivojlanish tendensiyasi tahlil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi logistika faoliyatining o‘ziga xos hususiyatlari va ularning sug‘urta kompaniyalari bilan o‘zaro aloqalari ko‘rib chiqilgan. Yuk sug‘urtasining asosiy nazariy tushunchalarітш berib o‘tilgan hamda shu sug‘urta turi bo‘yicha bir qator xorij mamlakatlari tajribasi o‘rganilgan. Bundan tashqari, ushbu maqolada O‘zbekiston logistika tizimining hozirgi holati va uning jahon iqtisodiyotidagi rivojlanish istqibollari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: sug‘urta, yuk sug‘urtasi, logistika, transport infratuzilmasi, xalqaro yuk tashish amaliyoti, sug‘urta riski.

Аннотация: В статье проанализирована тенденция развития использования страховых услуг в логистических компаниях, которые в настоящее время занимают широкое место в мировой экономике. Рассмотрены особенности логистической деятельности Республики Узбекистан и их взаимодействие со страховыми компаниями. Приведены основные теоретические концепции страхования грузов, а также изучен опыт ряд зарубежных стран по данному виду страхования. Кроме того, в данной статье рассматривается современное состояние логистической системы Узбекистана и перспективы ее развития в мировой экономике.

Ключевые слова: страхование, страхование грузов, логистика, транспортная инфраструктура, практика международных перевозок, страховой риск.

Abstract: In this article, using the ARMA model, the forecast values of the passenger transportation indicator by rail in Surkhandarya region until 2026 are determined.The article analyzes the trend in the development of the use of insurance services in logistics companies, which currently occupy a wide place in the global economy. The features of logistics activities of the Republic of Uzbekistan and their interaction with insurance companies are considered. The main theoretical concepts of cargo insurance are given, as well as the experience of a number of foreign countries on this type of insurance is studied. In addition, this article examines the current state of the logistics system of Uzbekistan and the prospects for its development in the world economy.

Key words: insurance, cargo insurance, logistics, transport infrastructure, international transportation practice, insurance risk.

## KIRISH

Jahonda jadal ravishda ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojlanayotgan bir davrda moliyaviy sektorlarning o‘rni beqiyos sanaladi. O‘zbekistonda mazkur sohani rivojlantirish va yangi manbalar bilan boyitishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu bois hozirda jahonda keng ko‘lamda tarqalib va rivojlanib kelayotgan islom moliyasini mamlakat milliy bozorida joriy etishga e’tibor berilmoqda. Hozirgi vaqtda sug‘urta mahsulotlarini logistika faoliyatining turli sohalarida, xususan, xorijiy davlatlar bilan tovar almashinuvini rivojlantirishning Markaziy tarkibiy qismi bo‘lgan yuklarni sug‘urtalashda qo‘llash masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Eksport yuklarini va ularni tashishni sug‘urta qilish O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va “Inkoterms” xalqaro qoidalariga muvofiq tijorat tashkilotlari bo‘lgan va tegishli sug‘urta turini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoniga binoan “Barcha transport turlarini uzviy bog‘lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o‘rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish maqsad qilib belgilangan. Shu bilan bir qatorda transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo‘llari tarmog‘ini jadal rivojlantirish. Undan tashqari, transport sohasida

tashqi savdo uchun “yashil koridorlar” hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish” ko‘zda tutilgan[1].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Logistikada yuklarni sug‘urtalash bosqichlari va istiqbollari bo‘yicha bir qator xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan: A.N.Nazarova, M.E.Orlova-Shayner, L.G.Skamay, I.M.Gurkov, I.V.Isaev, V.P.Toporkov va boshqalar. Xorijlik iqtisodchi olimlardan M.E.Orlova-Shayner: Yuklarni sug‘urtalashning maqsadi shart-sharoitlarni yaratishdir yuk egasidan mustaqil bo‘lgan holatlar natijasida tashilayotgan tovarning nobud bo‘lishi, yo‘qotilishi yoki shikastlanishi oqibatida tashish jarayonida yuzaga kelgan zararlarning kafolatlangan o‘rnini qoplash deb hisoblagan[2].

L.G.Skamay: yukni sug‘urtalash bu yuklarni tashish jarayonida turli xil hodisalar natijasida yetkazilgan zararlar holatida yuk egalarining mulkiy manfaatlarini himoya qilishni ilgai suradi.

V.P.Toporkov: ushbu sug‘urta turi xil transport turlari bilan tashiladigan tovarlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, tashuvchining aybi bor yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, yukning shikastlanishi yoki yo‘qolishi bilan bog‘liq yo‘qotishlarni qoplashga imkon beradi, deb ta`riflaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuni ilmiy o‘rganish, tarixiy-mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida tizimli tahlil va ilmiy abstraksiya kabi usullardan foydalanilgan. Maqolada, logistika kompaniyalarida yuk sug‘urtasini rivojlanishi va bu tizimni jahon sug‘urta bozoridagi o‘rni, mamlakat milliy iqtisodiyotida logistika tizimining tutgan o‘rni va bu sohaning O‘zbekistonda yanada rivojlantirish bo‘yicha taklif hamda amaliy tavsiyalar berilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Sugurta bu – kutilmagan baxtsiz hodisalar natijasida sodir bo‘lgan yo‘qotish va zararlarni qoplashga mo‘ljallangan iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Sug‘urta tizimi bu – bir tomondan, tadbirkorlik faoliyati va insonlar farovonligini himoya qilishga imkon beradigan, ikkinchi tomondan, sug‘urta faoliyatidan vaqtincha bo‘sh mablag‘larning investitsiya ob‘ektlariga yo‘naltirilishidan daromad keltiradigan iqtisodiy va huquqiy munosabatlar tizimidir. Sug‘urta himoyasi sotuvchi va xaridor o‘rtasida ayirboshlanadigan tovar bo‘lib, u talab va taklif asosida shakllanadi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining rivojlanishi, jahon integratsiyalashuv jarayonlariga qo‘shilishi bizni bugun jahon standartlari talablariga yaqinlashishga majbur qilmoqda. Korxonalarning moliyaviy holatini ob‘ektiv baholash, moliyaviy xavflarni kamaytirish va raqobatdosh ustunliklarga ega bo‘lishga qaratilgan strategiyalarni muvofiqlashtirishga qo‘yiladigan talablar ko‘paymoqda.

Logistika faoliyatida yuk tashishdagi sug‘urta esa hozirgi davrda eng kata talabga ega bo‘lgan sug‘urta turi hisoblanadi. Yuklarni tashish har doim yuqori xavf bilan birga keladi va shuning uchun transport paytida mol-mulkingizni mumkin bo‘lgan zararlardan himoya qilish uchun uni sug‘urta qilish yaxshiroqdir. Xavf sug‘urtaning asosiy tushunchasidir. Xavf deganda sug‘urta hodisasi yuzaga kelishi ehtimoli, shuningdek, undan kelib chiqadigan zarar tushuniladi (1-jadval). Logistika sug‘urtasi talab qilinadigan darajada ishonchlilikni saqlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui sifatida amalga oshiriladi.

1-jadval: Logistika tizimlarida xatarlar va sug‘urta[3]

| Logistika tizimlari nomi | Risk (Xavf) | Sug‘urta usuli |
|---|---|---|
| Xaridlar | Narxning mahsulot sifatiga mos kelmasligi.<br>Ishlab chiqarishda xarajatlarni oshirish | Funksional narxlarni tahlil qilish.<br>Byudjet cheklovlariga rioya qilish.<br>Bitim shartlarini optimallashtirish. |
| Transportda tashish | Transport xarajatlarini ko‘payishi.<br>Yetkazib berish jadvalining buzilishi.<br>Mulkni yo‘qotish | Marshrutlarni optimallashtirish.<br>Dispetcherlik.<br>Mulkni himoya qilish.<br>Mulkni sug‘urtalash.<br>Javobgarlikni sug‘urtalash. |

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son.
2 A. N. Nazarova, M. E. Orlova-Shayner., “Logistikada yuklarni sug‘urtalash” O‘quv qo‘llanma-Sankt-Peterburg 2017.
3 Gomon I. V., Merkulova A. I., ter-Oganesyan K. A. Rossiya transportining asosiy turlari bo‘yicha yuklarni tashishni tahlil qilish / / moliyaviy biznes. – 2020. – №7 (210).

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

| | | |
|---|---|---|
| Saqlash | Moddiy resurslarni yetishmo'vchiligi (immobilizatsiya).<br>Mulkni yo'qotish (o'g'irlash) | Zaxirani boshqarish.<br>Mulkni himoya qilish.<br>Yong'indan himoya qilish choralari.<br>Mulkni sug'urtalash. |
| Moddiy-texnik ta'minot | Muvozanatsizlik.<br>Moddiy resurslar sifatidagi nomuvofiqlik.<br>Vaziyat yuzaga keladi kamomad.<br>Normativdan ortiq zaxiralar | Moddiy resurslarning chiqimini normativlashtirish.<br>Kirish nazorati.<br>Ishlab chiqarish zaxiralarini boshqarish.<br>Operatsion xaridlar.<br>"Aniq muddat"da yetkazib berish. |
| Ichki ishlab chiqarishda moddiy resurslar harakati | Ishlab chiqarish ritmini buzilishi | Tugallanmagan ishlab chiqarishda zaxiralarni boshqarish.<br>Materiallarni ishlab chiqarish iste'moliga tayyorlash. |

Hozirgi globallashuv davrida jahon sug'urta bozori juda ham tez rivojlanmoqda bunga misol qilib Germaniya davlati tajribasini misol qilsak bo'ladi. Germaniyada sug'urta bozori bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadi. Milliy sug'urta bozorining yarmidan ko'pi (51%) mulkni sug'urtalash bilan shug'ullanadi. Germaniyaning logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalash G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlariga qaraganda juda mashhur.

Germaniyadagi sug'urta bozori davlat ijtimoiy ta'minoti tizimi va xususiy sug'urta sektori o'rtasida bo'lingan. Germaniyadagi xususiy sug'urta sektori o'z aksiyadorlarining mulki bo'lgan aksiyadorlik sug'urta kompaniyalari, o'zaro sug'urta kompaniyalari va davlat sug'urta korporatsiyalari tomonidan taqdim etiladi.

Buyuk Britaniya dunyodagi eng yirik sug'urta bozorlaridan biridir. Ko'pgina xalqaro sug'urta kompaniyalari nafaqat etarlicha katta ichki bozorda ishlaydi, balki butun dunyo bo'ylab sug'urta xizmatlarini taqdim etadi. 2020-yildan boshlab buyuk Britaniyaning sug'urta sanoati umumiy ichki sug'urta to'lovlari bo'yicha Yevropadagi eng yirik sanoat bo'ldi. Shu bilan birga, Buyuk Britaniya logistika sohasida yuklarni sug'urtalash to'lovlari bo'yicha dunyoda beshinchi o'rinni egallab, AQSh, Xitoy, Germaniya va Yaponiyadan keyin ikkinchi o'rinni egalladi.

Sug'urta obyekti bo'lib, Sug'urta qildiruvchining yuklarni tashish va saqlash, ya'ni: yuk, fraxt, yukdan kutilayotgan foyda va boshqa yukka qo'yiladigan talablarning ta'minlanishi bilan bog'liq bo'gan mulkiy manfaatlari hisoblanadi.

Ushbu sug'urta turi bo'yicha sug'urta hodisasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Sug'urtalangan yukning yoki uning ma'lum bir qismining alohida kelishilgan holatlardan boshqa har qanday sabab bilan yo'qolishi, yetishmasligi va shikastlanishi (buzilishi)dan ko'riladigan zarar (rasm 1).
2. Sug'urtalangan yukni yoki uning ma'lum bir qismini to'lqin yuvib ketishi va kemadan irg'itilishi, kema ichiga suv kirishi sababli yo'qolishi, yetishmasligi va shikastlanishi (buzilishi)dan ko'riladigan zarar.
3. Transport vositasiga ortish yoki undan tushirish paytida tushib ketishi oqibatida yukni butun joyini to'liq yo'qotishdan ko'riladigan zarar.




1-rasm: Logistika faolitadida yuk tashishdagi ma'lum bir sug'urta hodisalari[4]

4 https://alskom.uz/uz/services/legal/yur-imushchestvennoe-strakhovanie

Sug‘urta mukofoti sug‘urta summasidan, sug‘urta tariflaridan (sug‘urta summasidan 12,0 % gacha bo‘lgan miqdorda), Sug‘urta qildiruvchi tomonidan tanlangan shartlar, sug‘urta obyektining xususiyati, uni tashishning usul va hududidan kelib chiqib aniqlanadi.

Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda sug‘urta sektorining rolini oshirish, iqtisodiyotning real sektori, tashqi va ichki investitsiyalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sug‘urta yo‘li bilan himoyalashning xalqaro tajribasini o‘rganish va muhokama qilish, fuqarolarga ko‘rsatiladigan sug‘urta xizmatlarini rivojlantirish va aholining sug‘urta madaniyatini oshirish, sug‘urta bozorini tartibga solishning prudensial normalarini takomillashtirish hamda sug‘urta faoliyatini raqamlashtirish va axborot xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Bundan tashqari, mamlakatimizda oylik yuk tashuvlar daromadi 1,3 mln. dollardan 5,7 mln. dollarga oshdi. 2023-yil davomida 12, 268 ta reys amalga oshirish orqali 1, 933 ming yo‘lovchi va 42,5 ming tonna yuk (shu jumladan pullik bagaj va pochta) tashish rejalashtirildi. Joriy yilda yuk tashuvlari hajmini yanada oshirish maqsadida Toshkent-Gonkong-Toshkent-Tel’ Aviv-Toshkent va Toshkent-Gonkong-Toshkent-Kiev-Toshkent yangi yo‘nalishlar bo‘yicha parvozlarni amalga oshirish, ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha 2 ming tonna yuk tashish va 5,8 mln. AQSh dollari miqdorida qo‘shimcha daromad olish ko‘zda tutilgan.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda bo‘lib o‘tgan “Innoprom – 2021” xalqaro sanoat ko‘rgazmasi doirasida “O‘zbekiston Temir yo‘llari” AJ va Rossiyaning “RJD Logistika” kompaniyasi vakillari o‘rtasida oziq-ovqat mahsulotlarini, shu jumaladan qishloq ho‘jaligi mahsulotlarini muzlatgichli maxsus refrejerator konteynerlarda tashish uchun Agro-Ekspress poyezdlarni tashkil qilishga kelishib olindi. Mazkur yangi yo‘nalish O‘zbekistonning eksport tashuvlari, ayniqsa meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, hozirgi kunda Transport vazirligi tomonidan davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yangi “Mozori-Sharif-Qobul-Peshavor” va “Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” transport va tranzit yo‘laklarini yaratish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, “Mozori-Sharif-Qobul-Peshavor” temir yo‘lining qurilishi O‘zbekiston va O‘rta Osiyo mamlakatlariga dunyo okeaniga chiqishga eng yaqin yo‘l bo‘lib, Janubiy Osiyo temir yo‘l tizimini Markaziy Osiyo va Yevroosiyo temir yo‘llari bilan uzviy bog‘lash imkonini beradi. Bu o‘z navbatida, mamlakatimiz tranzit salohiyatining keskin oshishiga xizmat qiladi. Loyihani amalga oshirish natijasida Pokistondan O‘zbekistonga yuklarni tashish 35 kun emas, balki 3-5 kunni tashkil qiladi[5].

“Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” temir yo‘l qurilishi loyihasining amalga oshirilishi Osiyo Tinch okeani va Xitoydan Qirg‘iziston hamda O‘zbekiston orqali yuklarni Yevropa mamlakatlariga tashish uchun yangi xalqaro transport koridorini yaratadi. Qolaversa, yuklarni yetkazib berish vaqti keskin qisqarib, O‘zbekistonning tranzit salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash joizki, hozirgi kunda O‘zbekistonda 42 ta sug‘urta tashkilotlari faoliyat yuritib kelmoqda. Ulardan faqatgina 8 ta tashkilot logistika kompaniyalari bilan o‘zaro aloqolarini yuk sug‘urtasi bilan bog‘lab kelmoqdalar. Bundan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda sug‘urta mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj asta sekinlik bilan qisqarib bormoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, amalda sug‘urta xizmatlari yetarli darajada samarali emas. Davlatimiz tomonidan sug‘urta faoliyatini rag‘batlantirish va liberallashtirish bo‘yicha olib borilayotgan salmoqli chora-tadbirlarga qaramasda, sug‘urta iqtisodiyotini diversifikatsiya va iqtisodiy o‘sishning asosiy omiliga aylanmagan. Buning asosiy sabablari xizmatlar taklifi torligi va sifati pastligi, raqobatni deyarli rivojlanmaganligu, sug‘urta resurslari ta’minotining yetarli emasligi kabilardir. Shuni inobatga olganda, sug‘urta bozorini yana rivojlantirish, yangi konseptual qoidalar yaratish va sug‘urta kompaniyasi boshqaruvi samaradorligini oshirish hozirgi davrda yana shu kabi ustuvor vazifalarni xal etish o‘ta dolzarb muammo hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, logistika kompaniyalarida yuklarni sug‘urtalash yetkazilgan zarar miqdorini qoplash imkonini beradi. Amaldagi qonunchilikka binoan yuklarni sug‘urtalash transport shartnomasini tuzishda zaruriy shart emas. Yuk egasi yoki tashuvchi yoqimsiz vaziyatga tushib qolishni va yo‘qotishlarni olishni istamay, ixtiyoriy ravishda sug‘urta polisini rasmiylashtirishi mumkin. Ammo, ba’zi transport kompaniyalari, agar mijoz yukni sug‘urtalashni istamasa, transport shartnomalarini tuzishdan bosh tortishadi.

Shuni aytish mumkinki, O‘rta Osiyo davlatlari orasida asta-sekin katta hajmda eksport qiluvchi va import qiluvchi mamlakatlardan biriga aylanmoqda. Biroq, O‘zbekistonda amaldagi sug‘urta va logistikaga doir bo‘lgan qonuniy hujjatlar bir-biridan farq qiladi, bu esa haqiqiy dilemmani keltirib chiqaradi. O‘zbekiston logistika faoliyatida yuklarni sug‘urtalash amaliyotini joriy etish uchun logistika va sug‘urta sohasiga oid meyoriy-huquqiy hujjatlarni o‘rganib chiqishimiz va ularga zaruriy o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish masalalarini ko‘rib chiqishimiz kerak.

5 https://mintrans.uz/news/transport-logistika-sohasini-rivozhlantirish

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Transport to'g'risida"gi Qonuni, 2021-yil 9-avgustdagi O'RQ-706-son.
2. O'zbekiston Respublikasi "Sug' urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2021-yil 23-noyabrdagi O'RQ-730-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 1-fevraldagi PF-5647-son.
5. A. N. Nazarova, M. E. Orlova-Shayner., "Logistikada yuklarni sug'urtalash" O'quv qo'llanma-Sankt-Peterburg 2017 y.
6. Gomon I. V., Merkulova A. I., ter-Oganesyan K. A. Rossiya transportining asosiy turlari bo'yicha yuklarni tashishni tahlil qilish / / moliyaviy biznes. – 2020. – №7 (210).
7. http://www.lex.uz - (huquqiy hujjatlar sayti)
8. https://logistika.uz/- Transport axborot-logistika portali

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

## 2023. № 8

© Materiallar koʻchirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi 26-uy.

